

**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BOTANIKA INSTITUTI

XOSHIMOV XUSHBAXT RUSTAMJON O'G'LI

FARG'ONA VODIYSI SHIMOLIY ADIRLARINING FLORASI

03.00.05 – Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctorof philosophy (PhD)

Xoshimov Xushbaxt Rustamjon o'g'li

Farg'ona vodiysi shimoliy adirlarining florasini 3

Хошимов Хушбахт Рустамжон угли

Флора северных предгорий Ферганской долины..... 21

Hoshimov Hushbaht Rustamjon ugli

Flora of the Northern foothills of the Ferghana valley 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 44

**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BOTANIKA INSTITUTI

XOSHIMOV XUSHBAXT RUSTAMJON O'G'LI

FARG'ONA VODIYSI SHIMOLIY ADIRLARINING FLORASI

03.00.05 – Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.3.PhD/B483 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Botanika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.botany.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Batoshov Avazbek Risqulovich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tashxanim Raximova
biologiya fanlari doktori, professor

G'ayrat O'roqboyevich Qodirov
biologiya fanlari nomzodi, dotsent


Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.39.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 13-oktabr kuni soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (56-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 29-sentabr kuni tarqatildi.
(2023-yil 29-sentabrdagi 7-raqamli reestr bayonnomasi).



K.Sh. Tojibayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., akademik

U.H. Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., katta ilmiy xodim

F.I. Karimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi vaqtda global iqlim o'zgarishlari, shuningdek, abiotik, biotik va antropogen omillar ta'siri ekotizimlarda sodir bo'layotgan transformatsiya jarayonlari hamda mahalliy biologik xilma-xillikning qisqarishiga olib keladi. Shu o'rinda, ma'lum hudud florasining tur tarkibini aniqlash va o'simlik dunyosi obyektlarini biohujjatlashtirishga katta e'tibor qaratish lozim. Shuning uchun bioxilma-xillikni o'rganish, turlar tarkibini inventarizatsiyalashning zamonaviy metodlari asosida floralar holatini baholash, kamyob va endem turlar tarkibini aniqlash va ularni saqlab qolish zamonaviy biologiyaning dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Dunyoda mintaqaviy va milliy floraning o'simlik xilma-xilligini aniqlashga, muhofazaga muhtoj turlarni saqlab qolishga qaratilgan xalqaro dasturlarni takomillashtirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada turli xil mintaqaviy va hatto kontinental floraning tarkibi va biogeografik xususiyatlari aniqlandi, ma'lumotlar bazalari tuzildi, noyob va endemik turlarning populyatsiyalarini saqlab qolishning samarali usullari ishlab chiqildi. Shuni ta'kidlash kerakki, taksonomik tarkibning o'zgarishi haqidagi yangi ma'lumotlar barcha joyda nashir etiladi va ba'zi klassik flora ma'lumotlari zamonaviy ma'lumotlarga mos kelmaydi. Yangi floristik tadqiqotlarni rivojlantirish, ma'lumotlar ko'lamining ortishi biologik xilma-xillikni samarali saqlashga va antropogen ta'sir ostida o'zgargan va tabiiy yashash hududlarini floristik tadqiqotlarni yanada takomillashtirishga yordam beradigan trans chegaraviy va mintaqaviy tadqiqotlarni yo'lga qo'yishni talab qiladi.

O'zbekistonda tabiiy flora tarkibidagi turlar xilma-xilligini aniqlash va muhofaza qilish, davlat kadastrini yuritish, biologik xilma-xillikni saqlash va ulardan oqilona foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur yo'nalishlarda amalga oshirilgan dasturiy chora-tadbirlar asosida muayyan natijalarga erishildi. Xususan, ilgari kam o'rganilgan bir qator hududlarning zamonaviy floristik konspekti tuzildi, O'zbekistonning beshta ma'muriy viloyatlari florasining kadastri tuzildi hamda noyob turlarni tabiiy o'sish sharoitida barqaror saqlash bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi. Shuningdek, noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan o'simlik turlarini *ex-situ* sharoitida (tabiiy muhitdan tashqarida) saqlab qolish choralari ko'rildi. "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident farmonida¹ "...o'zining geografik va iqlim xususiyatlariga ko'ra, ayniqsa, adir va tog' ekotizimlarining nozikligi va suv resurslarining cheklanganligi sababli o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini saqlash va qayta tiklash" kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda Farg'ona vodiysi shimoliy adirlarining florasini taksonomik tarkibini aniqlash, turlarning hududda tarqalishini to'r tizimli xaritalar orqali ifodalash, kamyob va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-sonli "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.

yo‘qolib borayotgan turlar populyatsiyalarini xalqaro mezonlar asosida baholash hamda natijalarni amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-noyabrdagi 914-son “Hayvonot va o‘simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida”gi, 2018-yil 19-dekabrda №1034-son “O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobini tayyorlash, nashr etish va yuritishni tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2019-yil 11-iyundagi 484-son “2019-2028-yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tabiiy landshaftlar floralarining taksonomik tarkibini aniqlash, floraning zamonaviy konspektini tuzish va muhofazaga muhtoj turlarni aniqlashga qaratilgan tadqiqot ishlari dunyoning turli mamlakatlaridagi botanik olimlar tomonidan olib borildi, masalan F.G. Conti et al. (2005), J.de.L. Peter et al. (2011), K.O. Zvyagintseva (2015), A.P. Seregin et al. (2015), Sh. Ghazanfar (2016), A.N. Rao, V. Kumar (2018) va boshqalar. O‘rta Osiyoda bunday tadqiqotlarni Q.Z. Zokirov (1955, 1961), R.V. Kamelin (1990), G.A. Sadirova (2010), G.A. Lazkov va B.A. Sultanova (2014), K.Sh. Tojibaev & al. (2018, 2020, 2021) va boshqalar. O‘zbekistonda shu kabi tadqiqotlar K.Sh. Tojibayev (2002, 2010), A.R. Batoshov (2016), F.I. Karimov (2016), O.T. Turginov (2017), U.H. Qodirov (2020) va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Tadqiqot hududidan terilgan ilk gerbariy namunalari K.A. Molchanov va M. Moskov (1909) tomonidan terilgan. Hozirgi vaqtda Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlaridan 1466 dan ortiq gerbariy namunalari yig‘ilgan. Ular GAT, LE, B, MW, TASH, FRU va TAD kabi yirik gerbariy fondlarida saqlanadi. Farg‘ona vodiysi shimoliy qismida floristik va geobotanik tadqiqotlarni M.M. Arifxanova (1967), O.N. Bondarenko (1949-1950), T.S. Vernik va T. Raximova (1982), K.Sh.Tojibayev (2002), F.I. Karimov (2016) va boshqalar tomonidan olib borilgan. Bu ma’lumotlar Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlari florasining birlamchi ro‘yxatini shakllantirishda muhim fundamental asos bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, tadqiqotlar davomida Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlari florasiga oid 1466 tadan ortiq gerbariy namunalari yig‘ilgan bo‘lib, ushbu gerbariy namunalari hozirgi vaqtda yirik gerbariy fondlarida (LE, MW, TASH) saqlanib kelinmoqda. Yuqorida keltirib o‘tilgan tadqiqotlar ko‘lami jihatdan kengligi hamda uzoq davrni qamrab olganligi sababli, hozirgi kunda ular tarqoq holdagi ma’lumotlar bazasini tashkil etadi. Bu Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlarining florasiga oid turlar tarkibi va tarqalishining asosiy xususiyatlarini ochib berolmaydi. Shuning uchun Farg‘ona

vodiysi shimoliy adirlari florasining tur tarkibini aniqlashda va izohli konspektini tuzishda, geografik tarqalishiga oid yangi bilimlarni shakllantirishda, noyob va endem turlar populyatsiyalarining holatini baholashda, mavjud biologik xilma-xillikni saqlashda hamda turlarni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda katta nazariy va ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika institutining "Janubi-g'arbiy Hisor, Hisor-Darvoz va Panjoldi okruglari florasining to'r tizimli xaritalash" (2021–2025) davlat dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Farg'ona vodiysi shimoliy adirlari florasining tur tarkibini to'r tizimli xaritalash orqali aniqlash va floraning keng ko'lamli tahlilini amalga oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Farg'ona vodiysi shimoliy adirlari florasining taksonomik tarkibini aniqlash va floraning izohli konspektini tuzish;

floraning taksonomik, ekogeografik va biomorfologik tahlilini amalga oshirish;

turlarining tarqalishini aks ettiruvchi to'r tizimli xaritasini tuzish;

Farg'ona vodiysi shimoliy adirlari florasining noyob, yo'qolib borayotgan va endem turlarining tarkibini aniqlash va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti Farg'ona vodiysi shimoliy adirlari florasining yuksak o'simliklari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. Farg'ona vodiysi shimoliy adirlari florasining konspekti, taksonomiyasi, geografiyasi, floraning qiyosiy va hayotiy shakllari bo'yicha tahlili hamda muhofaza qilishni ilmiy asoslari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada floristikaning marshrutli, yarim statsionar usullari, sistematikaning solishtirma-morfologik areologik, biomorfologik usullari, to'r tizimli xaritalash, klaster tahlili hamda kamyoblik maqomini baholashning zamonaviy usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Farg'ona vodiysi shimoliy adirlari florasining taksonomik tarkibi aniqlandi, unga ko'ra 62 oila, 355 turkumga mansub 804 turni o'z ichiga qamrab olgan. Taksonomik tarkib asosida floraning izohli konspekti tuzilgan;

ilk bor O'zbekiston florasiga uchun 13 tur, shundan, Farg'ona vodiysi florasiga 8 tur keltirilgan;

oxirgi 114 yil ichidagi geobog'langan ma'lumotlaridan foydalangan holda floraning 804 turiga tarqalishini aks ettiruvchi to'r tizimli xaritasi tuzilgan;

Tabiatni Muhofaza Qilish Xalqaro Ittifoqi (IUCN) toifalari va mezonlari asosida 12 ta noyob va endem turlar uchun baholangan va muhofaza uchun tavsiya etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ning navbatdagi nashri uchun tarqalish areali qisqarib borayotgan kamyob va endem, xususan, *Allium haneltii*, A.

kuramense, *A. orunbairi*, *A. tatyanae*, *Ferula lithophila*, *Lamyropappus schacaptaricus*, *Astragalus allotricholobus*, *A. namanganicus*, *A. spryginii*, *Iris austrotschatkalica*, *Phlomidoides kirghisorum* va *Plagiobasis centauroides* turlari tavsiya etilgan va ularning arealining qisqarish sabablari, antropogen omillar ta'siri baholangan.

To'rt tizimli xaritalash asosida Farg'ona vodiysining shimoliy adirlarining florasini bo'yicha mavjud bo'lgan barcha ma'lumotlar raqamli formatga o'tkazildi. Tadqiqot hududining har bir maydoni 5x5 km bo'lgan 160 ta kvadratlarga (indekslar) ajratildi va 1909-yildan boshlab to'plangan floristik ma'lumotlar kvadratlar kesimida to'plangan va tahlil qilingan. Bu uslub orqali taqdim etilayotgan ma'lumotlarning ishonchliligini va tahlilning aniqligini ko'rsatadi.

Farg'ona vodiysining 41 ta noyob va endemik turlari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan 13 turi IUCN (2019) toifalari bo'yicha baholandi. Farg'ona vodiysidagi alohida ahamiyatga ega botanik hududlarni (Important Plant Areas, IPA) aniqlash usullari takomillashtirildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishida zamonaviy usullardan foydalanilganligi va ular asosida olingan ma'lumotlarni tahlil qilinganligi, respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarga taqdim etilganligi va muhokamadan o'tkazilganligi shuningdek, Scopus va Web of Science ma'lumotlar bazasiga kiritilgan yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, tadqiqotning amaliy natijalari tabiatni muhofaza qilishga ixtisoslashtirilgan vakolatli davlat tashkilotlari faoliyatiga joriy etilgan. Bundan tashqari, dala tadqiqotlari davomida yig'ilgan gerbariy namunalarning Moskva (MW), Sankt-Peterburg (LE), Gatersleben (GAT) va O'zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) fondlarida saqlanayotgan namunalar bilan solishtirildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Farg'ona vodiysi shimoliy adirlari florasining izohli konspektini tuzish, uni har tomonlama tahlil qilish va mavjud bo'lgan barcha ma'lumotlarni raqamli formatga o'tkazish bilan izohlanadi. To'rt tizimli xaritalash usulidan foydalanish taksonomik ma'lumotlarning ishonchlilik darajasini oshirishga va tadqiqot hududida turlarning geografik tarqalish xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida O'zbekiston florasini uchun bir qator yangi turlar bilan to'ldirildi, Farg'ona vodiysining endemik turlarini tarqalishi to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini kengaytirildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Namangan viloyati o'simlik resurslaridan barqaror foydalanish, uzoq muddatli monitoringini tashkil etish va uni muhofaza qilishning samarali tizimini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, olingan amaliy natijalar Farg'ona vodiysi tabiiy florasining davlat kadastrini va to'rt tizimli xaritasini tuzish, asosiy botanik hududlar tarmog'ini kengaytirish va yangi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni shakillantrish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, erishilgan natijalar O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan turlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Farg'ona vodiysi shimoliy adirlarining florasini tadqiq qilishda olingan ilmiy natijalar asosida:

Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlarining florasidagi O‘zbekiston “Qizil kitobi”ning 2019-yilgi nashriga kiritilgan turlar hamda “Qizil kitob”ning navbatdagi nashriga tavsiya etilgan turlarning populyatsiyasi holati, Tabiatni Muhofaza Qilish Xalqaro Ittifoqi (IUCN) mezonlari asosidagi tahlili va turlarni tarqalishini aks ettiruvchi GeoCAT hamda GAT xaritalari, Namangan viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi boshqarmasi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2023-yil 12-apreldagi 03-01/21-239-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, tadqiqot hududida tarqalgan kamyob va yo‘qolib borayotgan turlarning holatini monitoring qilish va ularning populyatsiyalarini muhofaza qilish imkonini bergan.

Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlari florasiga doir 618 dan ortiq turning 5540 dan ortiq gerbariy namunalari O‘zbekiston Milliy gerbariy (TASH) respublika noyob ilmiy obyekti fondiga topshirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2023-yil 9-yanvardagi 4/1255-47-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, G‘arbiy Tyanshan (Chorkesar) va Farg‘ona (Janubiy-Chotqol), okrugi tarkibidagi botanik-geografik rayonlar florasiga oid yangi gerbariy namunalari noyob ilmiy obyekti O‘rta Osiyo bo‘limi kolleksiyasini boyitgan va O‘zbekiston florasining elektron ma’lumotlar bazasi axborot-tahlil tizimini shakllantirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 10 ta ilmiy maqola, jumladan, 8 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 128 betni tashkil etgan.

DISERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tasniflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlarida olib borilgan floristik va geobotanik tadqiqotlar, tadqiqot obyekti va metodlari**” deb nomlangan birinchi bobida Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlarida olib borilgan tadqiqotlar tahlili, tadqiqotning obyekti va metodlariga bag‘ishlangan.

Bobning birinchi bo‘limida tadqiqot obyekti doirasida olib borilgan floristik

va geobotanik izlanishlarning tahlili keltirilgan. Tadqiqot ishida O.E. Knorring (1915), S.N. Kudryashev (1933, 1935), O.N. Bondarenko (1949, 1950), M.M. Arifxanova (1967), U.P. Pratorov (1971), R.S. Vernik va T.T. Raximova (1982) ning klassik tadqiqotlarini hamda K.Sh. Tojibayev (2002, 2010), F.I. Karimov (2016), R.K. G‘ulomov (2023) va boshqalarning zamonaviy tadqiqotlari tahlil qilindi. Ma’lumotlar bazasida 1909-yildan 2019-yilgacha to‘plangan va TASH, MW, LE va boshqa yirik gerbariy fondlarida saqlanayotgan 1466 ta gerbariy namunalari bo‘yicha ma’lumotlar to‘plangan. 2020-2023-yillardagi dala tadqiqotlar natijasida 5540 dan ortiq gerbariy namunalari to‘plandi va 32493 ta floristik dala yozuvlari tuzildi. Shuningdek, www.plantarium.ru, www.gbif.org va boshq. kabi ochiq internet manbalariga joylashtirilgan ma’lumotlar o‘rganildi. Shunday qilib, Farg‘ona vodiysining shimoliy adirlarining florasini ro‘yxatini tuzishda 1909-yildan 2023-yilgacha to‘plangan 9002 tadan ortiq namunalarga asoslangan. Shuningdek, yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib, turli yillarda yig‘ilgan namunalardan sonidan foydalanilgan holda turlar tarkibi aniqlangan (1-jadval).

1-jadval

Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlari florasining tur tarkibi bo‘yicha ma’lumotlarni to‘planish dinamikasi

	Yillar kesimida	Muallif ma’lumotlari	Boshqa manbalardan olingan ma’lumotlar			Miqdori	
			Gerbariy fondlari	Adabiyot ma’lumotlari	Online manbalar	Turkum	Tur
1	1939-yilgacha	-	493	445		183	289
2	1940-1950	-	468	376		164	271
3	1951-1967	-	274	281		144	232
4	1968-2019	-	231	764	46	165	281
	2020-yilgacha		3378			284	611
5	2020-2023	32493	5540	-	84	311	618
Yakuniy natija:			7006	1866	130		
Yakuniy natija:			35 955			354	804

Jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, gerbariy fondi ma’lumotlarining asosiy qismi 1939-yilgacha hamda 1940-1950-yillar oralig‘ida to‘plangan. Farg‘ona vodiysida birinchi intensiv tadqiqotlarning boshlanishi (S.N. Kudryashev 1933-1935 yillarda, O.N. Bondarenko 1949-1950 yillarda) va O‘zbekiston florasining birinchi nashrini tayyorlash (Tojibaev & al., 2014; Sennikov & al., 2016) bunga asosiy sabab bo‘lishi mumkin. Keyingi yillarda adabiyot ma’lumotlarining ortishi Farg‘ona vodiysida bir qator geobotanik va taksonomik tadqiqotlar (Bondarenko, 1955; Arifxanova, 1967; Pratorov, 1971; Vernik, Raximova, 1982; Tojibaev, 2022 va boshq.) bilan izohlanadi, unda Farg‘ona vodiysi florasidagi o‘simlik jamoalari yoki alohida oilalarning tur tarkibi keltirilgan.

Shunday qilib, Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlarining florasini maqsadli o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar boshlanishidan oldin (2019) yirik gerbariy fondlarida (TASH, MW, LE va boshqa) saqlangan 3378 ta namunalardan yig‘ilgan va 53 oila 284 turkumga mansub 611 turga tegishli ekanligi aniqlandi. Ushbu

dissertatsiya ishi doirasida tadqiqot hududi florasining tur tarkibi 24.01% ga, gerbariy namunalari va floristik yozuvlar esa 90.6% ga boyitildi. Ushbu ishda keltirilgan flora ro'yxati 62 oila 355 turkumga mansub 804 turdan iborat.

Bobning ikkinchi bo'limida tadqiqot obyekti va uning xususiyatlari hamda tadqiqot ishini bajarish davomida foydalanilgan metodlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Farg'ona vodiysi shimoliy adirlari florasining izohli konspekti**» deb nomlangan ikkinchi bobida yangi floristik topilmalar haqida ma'lumotlar va floraning izohli konspektini tuzish bo'yicha olingan natijalar keltirilgan.

Bobning birinchi bo'limida O'zbekiston florasini uchun yangi topilmalar va tadqiqot hududidagi bir qator turlarning yangi o'sish joylari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

2020–2023-yillarda olib borilgan dala tadqiqotlari va yirik gerbariy fondlarida (TASH, MW, LE) saqlanayotgan gerbariy namunalari o'rganish natijasida O'zbekiston florasini uchun yangi bo'lgan 13 tur aniqlandi. Ikki tur (*Lagochilus bungei* va *Zygophyllum fabago*) birinchi marta G'arbiy Tyanshan tizmalari uchun keltirilgan. To'rt tur — *Pyankovia affinis*, *Artemisia aflatunensis*, *Impatiens brachycentra*, *Lagochilus bungei* TASH va MW fondlaridan; ikki turi — *Carduus arabicus* subsp. *cinereus*, *Lagochilus subhispidus*, Plantarium onlayn platformasidan; yetti tur — *Girgensohnia bungeana*, *Allium arkitense*, *Ferula incisoserata*, *Eremurus czatkalicus*, *Plagiobasis centauroides*, *Fritillaria rugilosa*, *Zygophyllum fabago* muallifning dala tadqiqotlari natijasida aniqlandi.

Bundan tashqari, dala tadqiqotlari davomida *Anabasis ferganica*, *Anabasis truncata*, *Ferula lithophila*, *Tragopogon marginifolius*, *Cleome quinquenervia*, *Astragalus allotricholobus*, *Astragalus austroferganicus*, *Astragalus kelleri*, *Phlomis kirghisorum*, *Primula fedtschenkoi* kabi o'nta turning yangi o'sish maydonlari aniqlandi. Tadqiqot hududida to'r tizimli xaritalash bo'yicha indekslar kesimida amalga oshirilgan mashrutli dala tadqiqotlarining samarasi natijasida O'zbekiston florasini uchun ko'plab yangi topilmalar va yangi o'sish maydonlari keltirilgan.

Bobning ikkinchi bo'limida 62 oila va 355 turkumga mansub 804 turni o'z ichiga olgan floraning izohli konspekti keltirilgan. Konspektda oilalar ketma-ketligi paporotniklar uchun PPG I (2016), ochiq urug'lilar (Gymnosperms) uchun Christenhusz & al. (2011), gulli o'simliklar (Angiosperms) uchun APG IV (2016) tizimlari asosida shakllantirilgan. Konspektda har bir tur uchun ilmiy va o'zbekcha nomlari, o'sish joylari, to'r tizimli xaritada indekslarni uchrash darajasi, tarqalishi, ma'muriy tumanlar kesimida uchrashi va muhofaza qilinadigan turlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, har bir takson uchun to'r tizimli GAT xaritalari tayyorlangan.

Dissertatsiyaning «**Farg'ona vodiysi shimoliy adirlari florasining keng ko'lamlil tahlili**» deb nomlangan uchinchi bobida flora turlarning to'r tizimli xaritalash va klaster tahlili, taksonomik, geografik, biomorfologik va qiyosiy tahlil natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Mazkur bobning birinchi bo'limi floraning taksonomik tahliliga bag'ishlangan. Farg'ona vodiysidagi o'simliklar xilma-xilligini o'rganishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlarga qaramasdan nashr etilgan flora ro'yxati yo'q. Shimoliy adirlar bundan mustasno emas. Vodiyning ushbu qismida asosiy ilmiy tadqiqot ishi Namangan viloyati adir o'simliklari qoplami (Рахимова 1982) bo'lib, unda 46 oila, 224 turkumga mansub 364 tur keltirilgan. 2020–2023-yillardagi tadqiqotlarimiz doirasida flora tarkibi 440 tur bilan boyitildi, bu tadqiqot hududidagi barcha turlarning 54.73% ni tashkil etadi.

Yirik taksonomik birliklarining o'zaro nisbati Tog'li O'rta Osiyodagi boshqa floralarga o'xshaydi. Sporal o'simliklar (Equisetidae (Equisetaceae) va Ochiq urug'li o'simliklar (Gnetidae (Ephedraceae) mos ravishda 1 oila 1 turkumga mansub 2 turdan (umumiy floraning 0.5%) iborat ekanligi aniqlandi.

Yopiq urug'li o'simliklar (Angiospermae) 60 oila va 353 turkumga mansub 800 tur (umumiy turlarning 99.5%) o'z ichiga oladi. Ushbu sondan bir urug'pallalilarga (Monocots) 10 oila va 49 turkumga mansub 128 tur (15.92%), ikki urug'pallalilarga (Eudicots) 50 oila va 304 turkum va 672 tur (umumiy turlarning 83.58%) tegishlidir. Bir urug'pallalilarni ikki urug'pallalilarga nisbati 1:5.25 ni tashkil qiladi va bunday nisbat Tog'li O'rta Osiyo qismidagi ayrim floralar uchun xarakterli xususiyat hisoblanadi (Kamelin 1990, Tojibayev 2010, Batoshov 2016, Turginov 2017, Qodirov 2020). Bir oilaga o'rtacha 2.3 turkum hamda 12.97 tur (1:2.3:12.97) to'g'ri kelishi aniqlangan.

Tadqiqot hududi florasining yetakchi polimorf oilalar qatoriga 18 tadan ortiq turga ega bo'lgan 13 oila keltirildi, ularda 590 tur (73.38%) jamlangan. Shuningdek, polimorf turkumlar qatoriga 7 yoki undan ortiq turga ega bo'lgan 13 turkum keltirilgan. Ushbu turkumlarda 167 tur yoki umumiy turlarning 20.77% jamlangan (2-jadval).

Yetakchi oilalarning birinchi uchlik ketma-ketligi (As-Am-Fa) tuzilishiga ko'ra, flora spektrini Amaranthaceae+Fabaceae tipiga mansubligini ko'rsatdi (Хохряков 2000). Amaranthaceae oilasining yetakchilik qilishida iqlimining qurg'oqchilligi, ayniqsa quyi adir mintaqasida qurg'oqchil, sho'rlangan hamda ishqorli tuproqlarda o'sishga moslangan turlarning ko'pligi bilan izohlanadi. Fabaceae oilasining ustunlik qilishi butun O'rta Osiyo uchun xos xarakterini ko'rsatadi (Tojibaev 2010). Bu holda, bu ham floraning tog'li xususiyatini ham ko'rsatadi. Yetakchi oilalarning ikkinchi uchligi (Po-Br-La) sinantropizatsiya jarayonlarining ta'sirini ko'proq ko'rsatadi. Bu *Aegilops*, *Agrostis*, *Bothriochloa*, *Cynodon*, *Hordeum*, *Phragmites*, *Lolium*, *Poa* va boshq. (Poaceae); *Strigosella*, *Sisymbrium*, *Alyssum*, *Erysimum*, *Lepidium*, *Descurainia* va boshq. (Brassicaceae) va Lamiaceae ning ba'zi turkumlari, masalan *Lamium* turkumlar tarkibida aniq namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, Boraginaceae ning *Anchusa*, *Asperugo*, *Buglossoides*, *Lappula* va boshqa bir qancha turkumlarini ham ta'kidlash mumkin. Ulardan farqli o'laroq, yetakchi oilalar spektrida 8,9 va 12-pog'onalarni egallagan Apiaceae, Amaryllidaceae va Caryophyllaceae oilalari floraning tabiiy xususiyatlarining indikator ko'rsatgichidir. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek bu oilalar polimorf oilalar spektrida quyi pog'onalardan joy egallashi floraning antropogen o'zgarish darajasining ko'rsatgichi hisoblanadi (Березуцкий, Кашин, 2008).


Polimorf oila va turkumlarning spektri

№	Oilalar	Turkumlar	Turlar	%	Turkumlar	Turlar	%
1	Asteraceae	57	128	15.92	<i>Astragalus</i>	32	3.98
2	Amaranthaceae	32	68	8.46	<i>Allium</i>	23	2.86
3	Fabaceae	16	67	8.34	<i>Artemisia</i>	20	2.49
4	Poaceae	33	65	8.08	<i>Cousinia</i>	11	1.37
5	Brassicaceae	32	52	6.47	<i>Convolvulus</i>	11	1.37
6	Lamiaceae	18	43	5.35	<i>Bromus</i>	10	1.24
7	Boraginaceae	14	34	4.23	<i>Euphorbia</i>	9	1.12
8	Apiaceae	21	31	4.67	<i>Lappula</i>	8	0.99
9	Amaryllidaceae	1	23	2.86	<i>Polygonum</i>	8	0.99
10	Ranunculaceae	10	22	2.74	<i>Taraxacum</i>	7	0.87
11	Rosaceae	9	21	2.61	<i>Strigosella</i>	7	0.87
12	Caryophyllaceae	10	18	2.24	<i>Lagochilus</i>	7	0.87
13	Polygonaceae	5	18	2.24	<i>Delphinium</i>	7	0.87
					<i>Tamarix</i>	7	0.87
Jami:		258	590	73.38	Jami:	167	20.77
Qolgan oilalar (49)		97	214	26.62	Qolgan turkumlar (342)	637	79.23
Umumiy soni		355	804	100%	Umumiy soni	804	100%

Yetakchi turkumlar spektrida floraning tabiiy xususiyatlarini *Astragalus* (32 tur/3.98%), *Allium* (23/2.86%), *Cousinia* (11/1.37%) turkumlari belgilab beradi. Tadqiqot hududida Farg'ona vodiysi endemlarining uchdan bir qismi (27.27%) ushbu turkumlarga (*Allium*-9, *Astragalus*-7, *Cousinia*-2) to'g'ri keladi. *Artemisia* (kamida 20 tur) turkumidagi turlarning yuqori konsentratsiyasi tadqiqot hududining adir xususiyatlarini, shuningdek, Farg'ona vodiysida shuvoq turlarining xilma-xilligi yuqori bo'lgan hududlardan birining mavjudligini ko'rsatdi (Тожибаев, 2002).

Tadqiqot hududida 188 turkum bittadan tur bilan ifodalanadi, ulardan 6 tasi, ya'ni *Iljinia*, *Cousiniopsis*, *Lamyropappus*, *Picnomon*, *Plagiobasis*, *Pseudohandelia* monotipik bo'lib, ularning barchasi *Picnomon* turkumidan tashqari O'rta Osiyo uchun endemikdir.

Bobning ikkinchi bo'limi flora tarkibidagi turlarni to'r tizimli xaritalash va klasterlar bo'yicha tahliliga bag'ishlangan. To'r tizimli xarita indekslar kesimi bo'yicha taqsimlanishi 2 ta yo'nalish hisobga olingan: turlar xilma-xilligi (species richness, SR) va yig'malar zichligi (collection density, CD). Ma'lumotlar 160 ta indekslar bo'yicha tahlil qilindi. Umumiy to'r tizimli xarita uchun 62 oila, 355 turkumga mansub 804 tur uchun 35 955 namunalardan foydalanilgan. SR bo'yicha maksimal ko'rsatkich 251 turni (CK279), CD) bo'yicha esa 995 tani (CK279) tashkil etdi (1-rasm). O'rtacha bir turga 44.72 ta namuna to'g'ri kelishi aniqlandi.




1-rasm. Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlari florasining turlar xilma-xilligi va yig‘malar zichligi bo‘yicha to‘r tizimli xaritasi

Disertatsiyaning navbatdagi qismi tadqiqot hududida florasini tarkibi bo‘yicha farqlanadigan klasterlarga ajratish (Серегин, 2014) va ularning qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan. Klasterlarga ajratishning asosiy maqsadi floristik tarkibidagi o‘xshashlik va farqli jihatlarni aniqlash orqali Chorkesar (shimoliy-g‘arbiy qismi) va Janubiy Chotqol (shimoliy-sharqiy qismi) botanik-geografik rayonlari o‘rtasidagi chegara chiziq o‘rnini aniqlashdir (Tojibaev & al., 2016). Ushbu klasterga asoslangan masofa matritsasi IBIS 7.2 integratsiyalangan botanika axborot tizimida hisoblab chiqilgan (Зверев, 2007). Klaster hududlarning yuqori chegarasi yo‘q, shuning uchun ikkilamchi matritsadagi masofa qiymatlari maksimal darajada normallashtirildi. Statsoft Statistica 12 dasturi yordamida WPGMA metodining o‘rtacha arifmetik qiymati bo‘yicha klaster tahlili amalga oshirildi.

Botanik-geografik rayonlarning (shimoliy-g‘arbiy va shimoliy-sharqiy qismi) tabiiy-iqlim sharoitining getrogenligi turlar tarkibida namoyon bo‘ladi. Shu asosda Farg‘ona okrugi Janubiy Chotqol botanik-geografik rayonidan ikkita (A va B), G‘arbiy Tyanshan okrugi Chorkesar botanik-geografik rayonidan uchta (C, D va E) klasterlarga ajratildi. Klasterlarni ajratish va flora tarkibini o‘zaro qiyoslashda endemizm ko‘rsatkichi, yetakchi polimorf oilalarning tarkibi, o‘simliklar qoplaminin umumiy xususiyatlari va landshaft xususiyatlari inobatga olingan. Floristik qiyosiy tahlilning zamonaviy uslublaridan foydalangan holda (WPGMA, Evklid masofasi) Janubiy Chotqol va Chorkesar botanik-geografik rayonlari hamda ularning tarkibiga kiruvchi klasterlarning o‘xshashlik darajasi aniqlandi (2 rasm).

5 ta Klaster hudud uchun dendrogramma
Evklid masofasi



2-rasm. A) Klasterlarning joylashuvi; B) Tadqiqot hududining ikkita botanik-geografik rayonlarining o‘xshashlik dendrogrammasi

Tahlil natijalariga ko'ra, klaster B (Janubiy Chotqol rayoni) va klaster C (Chorkesar rayoni) dendrogarmmaning bitta kladasida joylashgan. Bu tur tarkibining yuqori darajada o'xshashligi bilan bog'liq. Natijada, har ikki botanik-geografik rayonlar o'rtasidagi chegarani Kosonsoy daryosi havzasi bo'ylab o'tkazish tavsiya etiladi.

Bobning uchinchi bo'limi floraning geografik tahliliga bag'ishlangan. Geografik tahlilning asosiy vositasi turlarning areal tiplari bo'ylab tarqalishi va tadqiqot hududining to'r tizimli xaritasida tarqalishi edi. Areologik tahlil shuni ko'rsatdiki, Farg'ona vodiysi shimoliy adirlarining 804 turi 44 ta areal tipiga bo'linib, 7 ta areal sinfiga birlashtirilgan.

Statistik tahlil natijasi 2 ta areal sinfi ustunlik qilishini ko'rsatdi. Qadimiyo'rtayerdengizi (223 tur, 27.74%) va Palearktik (189 tur, 23.51%). Qadimiyo'rtayerdengizi areal sinfining yetakchilik qilishi Poaceae (29 tur, 13.01%), Asteraceae (23 tur, 10.32%) Amaranthaceae (21 tur, 9.86%) va boshqa shu kabi oilalarda turlarning xilma-xilligi bilan bog'liq. Amalda xuddi shu oilalarning turlari, shu jumladan, Brassicaceae (21 tur, 11.12%) oilasi 18 ta areal tipini o'zida birlashtirgan Paleoarktik turlarning ustunligini ko'rsatdi. Paleoarktik turlar tarkibining yetakchi oilalarning birinchi uchligini Asteraceae (27 tur, 14.29%), Poaceae (21 tur, 11.12%), Brassicaceae (21 tur, 11.12%), Amaranthaceae (17 tur, 9.52%) va Boraginaceae (13 tur, 6.81%) tashkil etadi. O'rtaosiyo areal sinfi 6 ta areal tipini o'z ichiga oladi va 123 turni birlashtiradi. Ular orasida Asteraceae 33 tur (14.29%) bilan ustunlik qiladi. Yetakchi areal sinflar guruhida (≤ 100) 4 areal tipi bilan Tog'lio'rtaosiyo (122 tur, 15.17%) o'rin olgan, ulardan 41 tur (33.61%) Tog'li O'rta Osiyo uchun endemikdir. Floraning geografik tahlilida nisbatan tor arealga ega bo'lgan G'arbiytyanshan areal sinfi 58 tur (7.34%) bilan alohida ahamiyatga ega. Ulardan 49 turi yoki ushbu sinfdagi barcha turlarning 83.1% i G'arbiy Tyanshan uchun endem tur hisoblanadi. Shundan, *Allium adylovii*, *A. haneltii*, *A. kuramense*, *A. tatyanae*, *A. viridiflorum*, *Astragalus austroferganicus*, *Gagea uygursaica*, *Tulipa intermedia* va *T.scharipovii* kabi turlarning tarqalish areali tadqiqot hududidan tashqariga chiqmasligi aniqlandi.

Tadqiqot hududining to'r tizimli xaritasi asosida floraning geografik tahlil natijalari natijalari dissertatsiyada batafsil bayon etilgan.

Bobning to'rtinchi bo'limida S. Raunkiye (1934) tasnif asosida turlarning hayotiy shakllari bo'yicha taqsimlanish natijalari keltirilgan (3-jadval).

O'rganilayotgan florani 314 tur bilan terofitlar ustunlik qiladi, bu umumiy floraning 39 % dan ortig'ini tashkil etadi. Terofitlarning katta qismi o'rganilayotgan floradagi Qadimiyo'rtayerdengizi xususiyatlarini va antropogen transformatsiyaning yuqori darajasini ko'rsatadi. Undan keyin 290 tur (36.04%) bilan ifodalangan gemikriptofitlar keladi. Hayotiy shakllarining taqsimlanishini tahlil qilish Tog'lio'rtaosiyo va G'arbiytyanshan turlarining yuqori konsentratsiyasiga ega kriptofit (ayniqsa piyozli geofit turkumlar *Allium*, *Eremurus*, *Gagea*, *Iris*, *Tulipa*) va xamefitlar (*Artemisia*, *Acantholimon*, *Salvia*, *Astragalus* va bosh.) tarkibining o'ziga xosligini ko'rsatdi. Fanerofitlar (57 tur; 7.09%) asosan *Rosa*, *Tamarix*, *Lycium*, *Salix*, *Populus*, *Lonicera*, *Pistacia* va boshqa turkum turlari bilan ifodalanadi.

3-jadval


Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlari flora turlarining hayotiy shakllari bo‘yicha taqsimlanishi

Taksonlar	Hayotiy shakllari					Jami
	Fanerofit	Xamefit	Gemikriptofit	Kriptofit	Terofit	
Equisetopsida	-	-	-	2	-	2
Gnetopsida	2	-	-	-	-	2
Eudicots	55	67	248	22	280	672
Monocots	-	-	42	52	34	128
Jami	57	67	290	76	314	804
%	7.09	8.34	36.04	9.45	39.05	100

O‘simliklarning hayotiy shakllari nafaqat genetik xususiyatlarga, balki atrof-muhit omillariga ham bog‘liq (Prasad 1995; Elmas & Kutbay 2019). Xususan balandlik gradientlari bo‘ylab turlar xilma-xilligining o‘zgarishi bevosita yog‘in miqdorining ortishi va haroratning pasayishi bilan uzviy bog‘liq (Sanjerehei 2019). Shunga ko‘ra, disertatsiyada balandlikning o‘zgarishi va hayot shakllarining tarkibi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib chiqildi (3-rasm).

